



MUDOFAA VAZIRLIGI HUZURIDAGI “G‘ALABA BOG‘I” MAJMUASI TARKIBIDAGI “SHON-SHARAF” DAVLAT MUZEYI


3-BOB: 3- BOB : O'ZBEKISTON FRONTNING ISHONCHLI QO'RG'ONI

2-MASHG'ULOT: URUSH YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ILM-FAN, TA'LIM, MADANIYAT, ADABIYOT, SAN'AT VA MATBUOT


Toshkent sh. 2021 y.

Fan va ta'lim

- Ikkinchi jahon urushi boshlangan dastlabki kunlardanoq, ma'naviy va madaniy boy salohiyatga ega O'zbekiston xalqlari insoniyatning eng yovuz dushmani bo'lgan fashizmni tezroq tor mor qilish ishiga safarbar qilindi.
- Front ortida SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali urushning birinchi kunlaridan boshlab ilmiytadqiqot ishlarini mudofaa sohasi va xalq xo'jaligining dolzarb muammolarini hal etishga yo'naltirdi.
- 1941-yilning noyabr oyida 22 ta ilmiytadqiqot instituti, 16 ta oliy ta'lim muassasasi, 2 ta kutubxona, 40 dan ortiq shunday institutlar 1943-yilda O'zbekistonga ko'chirib keltirilib joylashtirildi.



- O‘zbekistonlik T.Sarimsoqov, V.Romanovskiy, M.Kamolov, N.Nazarov va boshqa olimlar rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar o‘qdorilar, harbiy texnika sifatini oshirish, vatan aviatsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim muammolarni hal qilishga salmoqli hissa qo‘shdi.



- Ko‘chib kelgan yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o‘zbekistonlik hamkasblari bilan O‘zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. V.Struve, V.Shishkin, E.Bertels, I.Dodonov, V.Zohidov, X.Inoyatov, A.Yakubovskiy, M.Masson, S.Tolstov, Y.G‘ulomov va boshqalar O‘zbekistonning eng qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma’naviyati, O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo‘yicha qator asarlar tayyorladilar.




V. Struve



Y. G'ulomov




M. Masson




S. Tolstov

1943-yilning 4-noyabrida O‘zbekiston FA tashkil etilib, uning birinchi Prezidenti etib taniqli olim Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy tayinlandi.

1945-yilga kelib, O‘zbekiston SSR FA yirik ilmiy markazga aylandi. Uning tarkibiga 23 ta ilmiy muassasa, 20 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 2 ta laboratoriya hamda tajriba stansiyasi kirdi. Fanlar Akademiyasi institutlarida 3 nafar faxriy a’zo, 15 nafar haqiqiy a’zo, 20 nafar muxbir a’zo, 1265 nafar ilmiy xodim, 54 ta fan doktori va 172 ta fan nomzodi fanning turli sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar.



- Urush davri qiyinchiliklariga qaramay, O‘zbekiston SSR oliy maktablarida ta’lim samaradorligi rivojlanib bordi. 1945-yil O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining soni urushdan oldingi davrga nisbatan 3 barobar oshdi. Urush davrida respublika oliy ta’lim muassasalari 11750 nafar, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari esa 6673 nafar kadrlarni tayyorlab berdi.
- Markazdan ko‘chirib keltirilgan institutlar hisobiga talabalar soni 19061 nafardan 21195 tagacha yetdi.



URUSH YILLARIDA ADABIYOT.
LITERATURE DURING THE WAR YEARS.

Urush yillarida adabiyot

- Ushbu mashg‘ulot urush yillarida madaniyat va san’atning tutgan o‘rni haqida zo‘z yuritiladi.
- Fashizmga qarshi urush yillarida ko‘plab O‘zbekistonlik yozuvchi va shoirlar bir qo‘lida quroq, bir qo‘lida qalam bilan dushmanga qarshi jangga otlandilar. Ular orasida O.Sharofiddinov, M.Ismoilov, A.Rahmat, G‘.G‘afurov, S.Jo‘ra, I.Rahim, N.Egamnazarov, Shuhrat, A.Hamdam, N.Safarov, Z.Fatxullin, M.Muhamedov, M.Hakim, A.Udalov, V.G‘ofurov, S.Akbariy, Z.Obidov, O.Yoqubov, I.Muslim va boshqa ko‘plab qalam sohiblari bor edi.
- Rus, ukrain, belorus adiblari ijodiy hamkorlikda «Biz yengamiz!» almanaxi, «O‘zbekiston shoirlari - frontga» antologiyasi yaratildi.
- Urush davrida A.Navoiyning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» dostonlari, Boburning lirik asarlari, Muqimiyl, Furqat she’rlari, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» eposlari rus tiliga tarjima qilindi. O‘z navbatida rus mumtoz yozuvchilarining asarlari o‘zbekchaga tarjima qilindi.



- Urush yillarida samarali qalam tebratgan adiblardan biri – bu taniqli yozuvchi va shoir G’afur G’ulomdir. O‘zbekistonning taniqli yozuvchisi G‘ofur G‘ulomning she’riyati va nasrida o‘zbek xalqi tarixi o‘zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang — she’rlar, qo‘shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar. G‘ofur G‘ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o‘zbek adabiyoti rivojida beqiyos o‘rin tutgan.
- Urush yillarida G‘ofur G‘ulom “Sen yetim emassan”, “Seni kutyapman, o‘g‘lim!”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Ayol”, “Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak” kabi ajoyib she’rlar yaratgan. “Seni kutyapman, o‘g‘lim!” she’rida shoir front ortida o‘zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g‘alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi.



"Muhammad to'pchi" balladasi ...



- Aslida qondosh ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan. Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Ushbu asar urush frontlarida zhang qilinayotgan o‘zbek yigitlarining ruhiyatini ko‘tarishda salmoqli hissa qo‘shtigan. "Muhammad tupchi" balladasi ...Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtida asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergen, “Kompozitsiyasi pishiq, dramatik to‘qnashuvlarga boy bir asar.

- Oybek — Oybek tahallusi ostida ijod qilgan shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1965), O‘zbekiston SSR FA akademigi (1943).
- Taniqli adib Oybek Ikkinci jahon urushining ko‘pgina xalqlar taqdirida ulkan rol o‘ynashini sezib, u haqda roman yozish ishtiyоqida bo’ldi. U shu maqsadda Moskva ostonalarida jang qilayotgan o‘zbek qismlarga berib, bo’lajak qahramonlarining harbiy hayotini yaqindan o’rgandi, 1942 yil dekabridan 1943 yil martining so’nggi kunlariga qadar frontda bo’ldi, ana shu safar chog’ida urushning achchiq haqiqati bilan to’yingan turkum she’rlarini yozdi.
- Afsuski, o’sha yillarda urush haqidagi bor haqiqatni aytishning, yozishning iloji yo’q edi. Shu bois Oybek domla «Quyosh qoraymas» romanini tugatmay, Navoiy romani ustidagi ishini davom ettirdi. Roman 1944 yili nashr etildi. Asar tez orada urush davri o‘zbek adabiyotining yuksak namunasi sifatida e’tirof etildi.




Evakuatsiya qilingan yozuvchi va shoirlar

- **Aleksey Nikolayevich Tolstoy** – 1882 yilda Samara guberniyasining Nikolaevsk qishlog‘ida tavallud topgan. 1941 yilning noyabr oyida Kuybishevdan Toshkenga evakuatsiya qilinadi. Toshkentda Tolstoy Ivan Grozniy asarini yaratadi. Yozuvchi o‘z qaydnomalarida Toshkent haqida quyidagilarni xotirlaydi: “Toshkent minglab miskinlar, qochoqlar uchun najot maskaniga aylandi”.



- **Anna Andreyevna Axmatova** – 1889 yilda Odessada dunyoga kelgan. 1941 yilning noyabr oyidan 1944 yilning may oyigacha Toshkent shahrida yashadi. “Ufqda Oy” deb nomlangan she’riy jamlanmasida shoiraning Toshkentda yozgan she’rlari o‘rin olgan. Shoiraning “Qaxramonsiz poema” kitobi ham urush yillari chop etildi.



Kino san'ati


- Kino san'ati sohasida M.Qayumov, E.Hamroyev, A.Frolov, Ya.Leybov, Sh.Zohidov, O.Rahimov kabi kinooperatorlarimiz jangchilarimizning fashist bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashlari haqida qisqa metrajli hujjatli filmlar tarkumini – kinonovellalar, kinohikoyalar, ocherklar, kichik satirik sahnalar ko‘rinishlarida tayyorlab xalqqa in’om etdilar.



- Soha vakillari tomonidan tayyorlangan “Biz yengamiz!” kinonovellasi, “Frontdagi do’stlar”, “Vatan sovg‘asi”, “Frontga konsert” kabi mingdan ortiq filmlar jangchilar ruhiyatini ko’tarishga va kuchlariga kuch qo’shishga xizmat qildi.
- 1942-yilda suratga olingan “Nafrat halqasida”, “Biz g‘alaba qozonamiz” kabi bir qator kompozitsiyalar xalqimizning frontdagi yuksak insonparvarligi va vatanparvarligi, uning g‘alabaga astoydil ishonchi hamda fashizmga nafrati haqida hikoya qiladi.



- Evakuatsiya qilingan taniqli kinematograflar Y.Protazanov, L.Lukov, Y.Gabrilovich, M.Romm, I.Xeyfis, N.Zarxi va boshqa bir o‘zbek rejissorlari N.G‘aniyev, Y.A’zamov, K.Yormatov, S.Muhamedov bilan birgalikda “Uning ismi Suxe-Bator”, “Ikki jangchi”, “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” kabi 10 dan ortiq badiiy filmlar suratga olindi.



- Urushdan keyingi davrlarda ham “Farhodning jasorati”, “41-yil olmalar”, “Sobir Rahimov”, “Vatan”, “Qo‘rg‘oshin”, “Berlin-oqqa‘rg‘on” kabi ko‘plab badiiy va hujjatli filmlar suratga olinib, bu jarayon hanuz davom ettirilmoqda.



Matbuot


- Matbuot Ikkinci Jahon urushi yillarida xalq va armiyani kurashga safarbar etishda, jang maydonlarida jon berib, jon olayotgan jangchilarning jangovar ruhini ko‘tarishda qudratli qurol bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta Osiyodan urushga safarbar qilingan yigtlarning aksar qismi G‘arbiy frontga yuborilgani uchun shu front qoshida o‘zbek, qozoq, tojik va turkman tillarida gazetalar nashr etila boshlangan.



- Urush yillarida o‘zbek tilida 13 ta front hamda 3 ta diviziya gazetalari, jumladan, Birinchi Boltiq bo‘yi frontida «Dushmanqa qarshi olg‘a!», ikkinchida «Suvorovchi», uchinchisida «Vatan uchun», Birinchi Belorussiya frontida «Qizil Armiya», ikkinchisida «Front haqiqati», uchinchisida «Qizil askarlar haqiqati», Birinchi Ukraina frontidagi «Vatan sharafi uchun», ikkinchisidagi «Suvorov natiski», uchinchisida «Sovet jangchisi», Uzoq Sharq frontida esa «Bong» gazetalari mavjud edi. Bundan tashqari diviziya va korpuslarda ham o‘zbek tilida gazetalar nashr etilgan.



- Front gazetalarida faoliyat yuritgan yozuvchilarimiz Mirzakalon Ismoilov, Nazir Safarov, Zinnat Fatxullin, Ibrohim Rahim, Mumtoz Muhamedov, Adham Rahmat, Adham Hamdam o'zbek jangchi bahodirlarining kundalik mardliklarini yoritishda yosh qalam sohiblariga namuna bo'lganlar. Ular shiddatli janglar borayotgan joylarda, qorli okoplarda, qalin o'rmonlarda, botqoqliklarda, razvedka so'qmoqlarida, otishmalar avjga kirgan vayrona shahar va qishloqlarda, jang taqdiri hal bolayotgan maydonlarda jangchilarimiz bilan birga bo'lganlar, ularning jasoratlari, fidoyiliklari haqida yozganlar. Ba'zi vaqtarda esa faqat qalam bilangina emas, balki qo'lga qurol olib ham jangga kirganlar.



- Nazir Safarovning «O‘zbek farzandlari», «So‘nggi nafasgacha», «Jangchi qizlar» va boshqa ocherklari jang maydonlarida yozilgan. Zinnat Fatxullin ocherk yozish uchun aloqa bataloniga boradi. Batalon komandiri kapitan Ahmad Bobojon bilan uchrashgan vaqtda fashistlar ularga qarshi hamlaga o‘tishadi. Fatxullin Ahmad Bobojon jangchilari bilan bir qatorda yov hujumini qaytaradi. Mirzakalon Ismoiliy namanganlik motoo‘qchi rota komandiri Mamasoli Jabborov Oryol va Polsha yerlarida olib borgan janglari vaqtida u bilan uchrashib, qahramon haqida ocherklar yozgan. Boshqa jurnalistlar ham bu ko‘pni ko‘rgan ustoz yozuvchilarday janglardagi mardi maydonlarimiz bilan birga bo‘lib, jangovar voqealar to‘g‘risida muhim lavhalar, ocherklar yozganlar. Ularning front ocherklari, she’rlari urushdan keyin Toshkentda nashr etilgan «Mardlik qissalari», «Jangovar sahifalar» va boshqa to‘plamlarda jamlangan.



TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT

- Urush davrida xalqimizning front va front ortidagi jasorati, matonati, ayollarning sadoqati va fidoyiligi, O‘zbekiston ahlining bolajonligi, bag‘rikengligi, shuningdek, jangchilarimizning janggohlardagi jasorati va shijoati rassom va haykaltaroshlarning haykaltaroshlik va qalamtasvir, rangtasvir asarlarida, polotnolarda, dushmanni fosh qiluvchi karikatura, jangovar, da’vatkor plakatlarida o‘z aksini topdi





• A.M. Nyurenberg (1887-1979). Evakuatsiya.
Poezdni kutish. 1941 y.

Taqdir taqozosi bilan 1941 - 1943 yillarda O'zbekiston rassomlar uyushmasida faoliyat yuritgan iste'dodli rassom Amshey Nyurenbergning memuarlarida evakuatsiya jarayoni, Toshkentga kirib kelish va bu yerdag'i vaziyat, sharq odamlari va ularning yashash tarzi to'g'risida qimmatli xotiralari kundalik va kartinalar ko'rinishida saqlanib qolgan. Qaydnomada keltirilishicha: "Uchta ko'rgazma uchun qoralama yozayapman. Mavzular juda ko'p, ular meni yutib yuborayotgandek. Onaning partizanlik harakatlariga qo'shilishi, partizanlarning otilishi, evakuatsiya qilinganlar. Partizanlar va evakuatsiya qilinganlar bilan ikki oylik sayohat va Toshkentda o'tkazgan 5 oylik hayotim menga ko'p narsalarni o'rgatdi". Ijodkor o'z qarashlaridan kelib chiqib: "Rassomlar ham jangdagi snayperlar kabitidir. Faqat, frontga, partiya va xalqga yaqin bo'lish kerak" deb yozadi



O'zbekistonga evakuatsiya qilingan rassomlar ijodidan namuna.

VATANNI HIMOYA QILISHI O'RGAN!

UzTAG oynasi.

A. Aleksandrov. V. Volchek.

- O‘zbekistonlik S.Abdullayev, V.Timurov, N.Gerasimov, I.Ujinskiy A.Abdullayev, Ch.Ahmarov, O‘.Tansiqboyev, M.Nabihev, O.Tatevosyan, V.Ufimsev kabi rassomlar o‘z vatanlarini bir qo‘lida mo‘yqalam, bir qo‘lida qurol bilan mardonavor himoya qildilar.



Ch.Ahmarov



O‘. Tansiqboyev



S. Abdullayev



M. Nabihev

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
Sovet ittifoqi qaxramoni
Samig' Abdullaev



- Bu davrda yaratilgan rassom O'rol Tansiqboyevning "Urush yo'llarida" nomli asarlar turkumi, "Oqliqlar hujumi" va "Partizanlar" kabi asarlari, V.Kaydalovning "Biz g'alaba qozonamiz" va "Dushmanga qaqshatgich zarba", M.Arnikaning "Fashist shtabiga partizanlarning bosqini" va "Gospitalda sheflar", L.Abdullayevning "Mukofot bilan tabrik" va "Qizil Armiya tomon yo'l" kabi asarlari, shuningdek, haykaltaroshlar F.Grishchenko, D.Ryabichev, M.Musaboyev, D.Ro'ziboyev, A.Tirov, X.Xusanxodjayev, A.Axmedov, Y.Shapiro, A.Boymatov va J.Kuttimuradovlar tomonidan yaratilgan asarlar urushning badiiy yilnomasiga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi.



UzTAG rassomi N. Kashina ijodiga mansub targ'ibot-tashviqot plakati



TEATR VA MUSIQA SAN'ATI

- Urush yillarida O‘zbekistonda 35 ta mahalliy va 16 ta ko‘chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko‘rsatib, butun urush davomida 203 ta yangi sahna ko‘rinishlari tayyorladilar va 6 667 303 tomoshabinga 13 568 ta spektakl va konsertlarni frontning oldingi chizig‘ida jang qilayotgan harakatdagi armiya jangchilariga ko‘rsatdilar.



- T.Jalilov, T.Sodiqov, D.Zokirov, N.Hasanov, M.Burhonov, Yu.Rajabiy, M.Ashrafiy, S.Yudakov singari mashhur kompozitorlar tomonidan “Qizil Armiya marshi” singari harbiy mavzuda qator qo’shiqlar yaratildi. M.Ashrafiyning “Qahramonlik simfoniysi” 1943-yili Davlat mukofotiga munosib topildi. Mazkur Simfoniya 1945-yilning sentabrida AQSHda ijro etildi.



M. Ashrafiy



T. Jalilov



D. Zokirov



M. Burxonov

- Urush yillarida 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etildi. Ular harakatdagи armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, O'rtal Osiyo harbiy okrugi qismlari va gospitallarda 26 mingta konsert dasturlari namoyish etib, jangchilarni ruhlantirib fashizm ustidan qozoniladigan g'alaba tomon undadilar.



Xalima Nosirova



- Ayniqsa, Tamaraxonim, H.Nosirova, M.Turg'unboyeva, G.Rahimova, G.Izmaylova, S.Eshonto'rayeva, M.Qori-YOqubov, A.Hidoyatov, Sh.Burhonov, M.Muhamedov, Y.Abdullayeva kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangch-tomoshabinlar qalbiga ko'tarinkilik baxshida etgan.



Galya Izmaylova



Sora Eshonto'rayeva



Halima Nosirova



Tamaraxonim Petrosyan

- 1942-yil tarqoq va yakka holda ishlaydigan milliy sirk ijodkorlari bir jamoaga birlashtirilib, O‘zbek ko‘chma sirk kollektivi tashkil etildi. Bunga qadar, 1941-yil 10-oktabrdan 1942-yil 3-martgacha sirk ijodkorlari 130 ming tomoshabinga 171 ta konsert dasturlari namoyish etgan edilar. Bundan tashqari, 28 ming Qizil Armiya jangchilari uchun 71 marotaba sirk tomoshalari namoyish etilgan.

